

Proceedings of International Congress on “Multidisciplinary Studies in Education and Applied Sciences”

Hosted Online from Los Angeles, California, USA on February 10th, 2023.

www.conferencezone.org

O’ZBEKISTONDA INKLYUZIV TA’LIM

Rimbayeva Ozoda Bazarbayevna

NukusDPI Maxsus pedagogika: logopediya 2-kurs talabasi

Abstract: Ushbu maqolada bugungi kunda O’zbekistonda dolzarb mavzuga aylanayotgan Inklyuziv ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan ishlar haqida so’z bordi. Inklyuziv ta’limning yutuqli tomonlari va aksincha ta’sirlari haqida fikr yuritib, ushbu ta’limdan olinadigan natijalarini tahlil qilishga urindik. Maxsus ta’lim muassasalarida ta’lim olayotgan bolalar va ularni inklyuziv ta’limga jalb etish uchun olib borilayotgan ishlarni yoritib berishga urindik.

Keywords: inklyuziv ta’lim, inklyuziv mакtab, maxsus ta’lim muassasalari, reabilitatsiya markazlari, maxsus pedagog, kompensatsiya.

Kirish. Inklyuziv (Inglis tilidan “inclusion” kiritish) ta’lim-bu ayrim sabablarga ko’ra ta’limga qamrab olinmagan, umumiy ta’limdan chetda qolgan, nogironligi bo’lgan, aqliy yoki jismoniy rivojlanishida ayrim nuqsonlar sabab ta’limdan ajrab qolgan, psixik yoki ruhiy tomondan kamchiliklari bo’lgan bolalarni ta’limga kiritish, jamiyatga qo’shishdir. Ularni jinsidan, ijtimoiy ahvoldidan, iqtisodiy qiyinchiliklaridan qat’iy nazar ta’lim jarayoniga qamrab olishdir. Bundan ko’zlangan maqsad chekka qishloq va mahallalarda hamda tog’li hududlarda istiqomat qiluvchi aholi farzandlari orasida shu kungacha ta’lim maskanlariga bormagan, umumiy o’rtta ta’lim olmagan yoshlarning borligi hamda ularni boshqa tengdoshlari kabi ta’lim olishda teng huquqlarga egaligini isbotlashdir.

Inklyuziv ta’lim rivojlangan davlatlarda ancha yillar avval ilgari surilgan. Misol tariqasida aytadigan bo’lsak 1973-yil AQSH kongressida o’rtaga tashlangan mavzu nogironligi bo’lgan bolalarni ta’limga jalb qilish masalasi bo’ldi. Shundan so’ng bu soha bo’yicha ishlar to’xtab qolmadi va 1975-yilda nogiron bolalar ta’limi to’g’risida qonun qabul qilindi. Ushbu qonunda maxsus ta’lim muassasalari, maxsus pedagoglar hamda nogiron bolalar uchun barcha narsa belgilab olindi. Bolalarning nuqsonlari ularning imkoniyatlari e’tiborga olingan holda ularga mos metod va usullar ishlab chiqildi.

Rossiyadagi inklyuziv ta’lim haqida gapiradigan bo’lsak, birinchi inklyuziv ta’lim muassasalari 1980-1990-yillarda paydo bo’ldi. 1992-yilda esa “Noguronligi bo’lgan shaxslarni integratsiyalashtirish” [1] loyihasi yaratildi. Shu loyiha sababli mamlakatning o’n bitta hududida nogironligi bo’lgan bolalarni integratsiyalashgan holda o’qitish tajriba maydonchalari tashkil etildi.

Bu soha pedagoglari alohida tayyorgarlikni talab qilganligi uchun turli kurslar joriy qilindi. Unda pedagoglar o’qitilib rivojlanishda nuqsoni bo’lgan bolalarni

Proceedings of International Congress on “Multidisciplinary Studies in Education and Applied Sciences”

Hosted Online from Los Angeles, California, USA on February 10th, 2023.

www.conferencezone.org

o'qitish, ularga mos metod va usullarni eng asosiysi bunday bolalarning psixologiyasi bilan tanishdilar. Mana shunday tayyorgarliklardan keyin ular ta'limga kirishdi. Bunday maxsus tayyorgarliksiz rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalarga ta'lim berish mushkul, chunki ular har tomonlama: jismoniy, aqliy, ruhiy tomonidan sog'lom bolalardan farq qiladi. Sog'lom bolalarni o'qitib yurgan pedagog nuqsonli bola oldida dars berolmaydi. Chunki sog'lom bola o'r ganayotgan metodi bu bolaga tushunarsiz bo'lishi yoki og'irlilik qilishi mumkin. Shularni to'g'ri ko'ra olganliklari uchun Rossiya hukumati avvaliga maxsus pedagoglarni tayyorlab oldi.

Endi esa Inklyuziv ta'limga O'zbekistonda joriy qilish, bu sohada olib borilayitgan ishlar haqida gapiradigan bo'lsak, mamlakatimizda 2020-yilda qabul qilingan qarorga ko'ra O'zbekistonda inklyuziv ta'limga rivojlantirish, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda undagi ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash maqsadida ishlar amalga oshirila boshladи. Ushbu qarorda 2020-2025-yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limga rivojlantirish ishlarini amalga oshirish belgilangan. Mamalakatimizning barcha hududlarida 2021-yildan boshlab tarjiba sifatida inklyuziv sinflar, inklyuziv ta'lim muassasalari ochila boshladи.

Ho'p inklyuziv ta'lim muassasalari ochilmoqda ammo inklyuziv ta'lim uchun zarur shart-sharoitlar yaratildimi? Bilamizki Maxsus ta'lim tizimi juda ko'p narsalarni talab qiladi. Uning umumuy ta'limdan farqi juda katta. Chunki bu ta'lim tizimida rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalar ta'lim-tarbiya oladi. Ularning ma'lumotlarni qabul qilishi, psixologiyasi, xarakteri barcha barchasi sog'lom bolalardan tubdan farq qiladi. Ularga ta'lim-tarbiya berish ham sog'lom bolalar method va usullaridan ancha farqlidir. Rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalar ayniqsa aqli zaif bolalarga ta'lim-tarbiya berishda eng birinchi to'siqlardan biri bu E.Segen aytganidek aqli zaif bolalardagi "xohishning yo'qligi bo'lib, bu jarayon nafaqat ta'lim-tarbiya olishda balki bolaning shaxsi rivojlanishida ham asosiy mjammo hisoblanadi". [2] Rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalar ta'lim-tarbiyasi pedagogdan katta ma'suliyat va mehnat talab qiladi. U sog'lom bolalarni o'qitish uchun qolgan harakatlaridan ikki hissa ko'proq harakat qilishi kerakdir. O'qituvchi inkluziv ta'lim dars jarayonlarida sog'lom bola bilan bir qatorda nosog'lom bolani ham darsga qiziqtira olishi, uning diqqat va e'tiborini dars jarayoniga va o'ziga qarata olishi lozim. Darsda berilayotgan ma'lumotlarni har ikki toifadagi bola qabul qila olyaptimi yoki yo'q shuni nazorat qilishj lozim. Bolalarning barchasi pedagogdan maxsus tayyorgarlikni talab qiladi.

O'qituvchi yana sinfda sog'lom bolaga ham nosog'lom bolaga bam birdek munosabatda bo'la olishi kerak. Bu ikki turdag'i bola bir-biriga albatta ta'sir ko'rsatadi. O'zingiz o'ylab ko'ring, shu kungacha nuqsonli bolani ko'rmagan yoki u bilan yaqin aloqada bo'lмаган bola bilan yonma-yon o'tiribdi. Bu holatda sog'lom bola nuqsonli bolaga o'zgacha qarashi, unga boshqacha munosabat

Proceedings of International Congress on “Multidisciplinary Studies in Education and Applied Sciences”

Hosted Online from Los Angeles, California, USA on February 10th, 2023.

www.conferencezone.org

bildirishi mjmkin. Bu esa albatta nuqsonli bola psixikasiga o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmaydi. U bundan siqilishi va stressga tushishi mumkin. To'g'ri bu holatda uydagi tarbiya va bolaning dunyoqarashi va fikrlashi yuqori bo'lsa balki bunday holat yuz bermas ammo biz hozirgi kunda ko'ryapmizki bolalar o'yagan narsalarini, o'z fikrlarini ochiq aytafigan bo'lib shakllanmoqda.

Inklyuziv ta'limni yo'lga qo'yishdan oldin pedagoglarni yaxshilab qayta o'qitish, o'quvchilarni va ularning ota-onalarini ogohlantirish va tanishtiruv- tushuntirish ishlari olib borilishi lozim. Har qanday islohatni amalga oshirishdan oldin, qilinayotgan o'zgarishlar haqida odamlarga tushuntirish va tashviqot ishlarini olib borish, tanishtirish lozim. Ayniqsa ta'lim sohasi juda muhimdir.

Har bir mamlakat rivojlanishi uchun eng avvalo ta'lim sohasi va qonun ustuvorligini yuksk darajaga keltirishi kerak. Yosh avlodning bilimli va ilmi bo'lishi zamonaviy fikrlay olishi, qobiliyatlarini rivojlantirishi, o'z ustida ishlay olishi uchun shart-sharoit yaratib berilishi eng muhim jarayon hisoblanadi. Vatan, turt ravnaqi yoshlar qo'lida ekan ularga berilgan e'tibor albatta o'z natijasini beradi. Shunday ekan rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalar ta'lim olishi uchun inklyuziv ta'lim nafaqat uni balji korreksion sinflar ham tashkil etilishj, ular bilan alohida ish olib borilishi, qobiliyatlarini inobatga olgan holda ularga yo'nalish ko'rsatilishi lozim.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki har bir o'zgarish zarur shart-sharoit va maxsus tayyorgarlik talab qiladi. Shunday ekan inklyuziv ta'limni yo'lga qo'yar ekanmiz eng avvalo yosh avlodga bilim beruvchi, ularning ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi pedagog kadrlarni kuchli bilim va mahorat egasi qilib tayyorlab olishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Umumiyy pedagogika” B.Ma'murov Buxoro-2020
2. “MAXSUS PEDAGOGIKA” P.M.Po'latova Toshkent-2014
3. “Fan, ta'lim va amaliyot integratsiyasi” 25.06.22 nashri